holda, intellektni yorug‘lik sifatida ko‘rsatadi. Bu metaforalar, intellektual ilhomning nozikligi va o‘tkinchiligini ta’kidlashda, shaxsiy intellektni go‘zallik va kashf qilish lahzalari bilan bog‘laydi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy ingliz adabiyotida frazeologik birliklarning tahlili, intellektual qobiliyatlar madaniyatga o‘rnatilgan til orqali tasavvur qilinganligini ko‘rsatadi. Never Let Me Go da intellekt jamiyat tomonidan qurilgan tovar sifatida tasvirlanadi. Atonementda hikoya qilish va tushunish bilan bog‘liq bo‘ladi; va White Teeth da madaniy xilma-xillik tomonidan shakllanadi. Ushbu asarlar frazeologik ifodalar nafaqat literal, balki metaforik ma’nolarga ham ega ekanligini ko‘rsatadi, bu esa intellektga nisbatan jamiyat qarashlarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, frazeologiya intellektga bo‘lgan madaniy munosabatlar til orqali ifodalanadigan va uzatiladigan lingvistik oynaga xizmat qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu ifodalar raqamli muloqotda yoki madaniyatlararo adabiy kontekstlarda qanday rivojlanishini o‘rganishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Eagleton, T. How to Read Literature. Yale University Press, New Haven, 2013, 248 p.
(2). Fernando, C. Idioms and Idiomaticity. Oxford University Press, Oxford, 1996, 280 p.
(3). Ishiguro, K. Never Let Me Go. Faber & Faber: London, 2005, 263 p.
(4). Kunin, A.V. English-Russian Phraseological Dictionary. Moscow, Russian Language, 1996, 540 p.
(5). Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press: Chicago, 1980, 242 p.
(6). McCarthy, C. The Road. Knopf: New York, 2006, 287 p.
(7). McEwan, I. Atonement. Jonathan Cape. London, 2001, 371 p.
(8). Smith, Z. White Teeth. Hamish Hamilton. London, 2000, 448 p.
(9). Tartt, D. The Goldfinch. Little, Brown and Company. New York, 2013, 771 p.

Masharipova Farida Zokirovna (Urganch davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti: faridamasharipova7@gmail.com)

ERKIN SAMANDARNING “DARYOSINI YO‘QOTGAN QIRG‘OQ” ROMANI BADIIYATIDA ZID MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Erkin Samandarning “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanida qo‘llanilgan zid ma’noli so‘zlar leksik-semantik jihatdan tahlilga tortilgan. Adibning zid ma’noli so‘zlardan foydalanishi natijasida nasrning ifodaliligi, ekspressivligi va ta’sirchanligi ta’minlangan. Ular orqali qahramonlarning xarakteri, ruhiy holatlari va ichki kechinmalari bilan bog‘liq zidliklar bo‘rttirib ifodalangan. Shuningdek, yozuvchining tildan foydalanish mahorati lingvopoetik jihatdan ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *zid ma’noli so‘zlar, antiteza, morfologik antonim, leksik antonim, frazeologik antonim, kontekstual antonim.*

Машарипова Фарида Зокировна (2 курс базовой докторантуры Ургенчского государственного университета; faridamasharipova7@gmail.com)

МЕСТО АНТОНИМОВ В РОМАНЕ «БЕРЕГ, ПОТЕРЯВШИЙ СВОЮ РЕКУ» ЭРКИНА САМАНДАРА

Аннотация. *В статье анализируется лексико-семантическое значение слов, используемых в романе Эркина Самандара «Берег, потерявший реку». Использование писателем слов с противоречивыми значениями обеспечивает выразительность, экспрессивность и воздействие прозы. Они преувеличивают противоречия в характерах персонажей, их душевных состояниях и внутренних переживаниях. Мастерство писателя в владении языком проявляется и в лингвопоэтическом плане.*

Ключевые слова: *антонимы, антитеза, морфологический антоним, лексический антоним, фразеологический антоним, контекстуальный антоним.*

Masharipova Farida Zokirovna (2nd year basic doctoral student of Urgench State University; faridamasharipova7@gmail.com)

THE PLACE OF ANTI-SYNONYMS IN THE NOVEL “THE RIVER-LOST BORDER” BY ERKIN SAMANDAR

Annotation. *This article analyzes the lexical-semantic aspects of the antonyms used in Erkin Samandar's novel “The Shore That Lost the River”. The writer's use of antonyms ensures the expressiveness, expressiveness, and impact of his prose. Through them, the contradictions associated with the characters, mental states, and inner experiences of the characters are exaggerated. The writer's mastery of language is also revealed in terms of linguopoetics.*

Key words: *antonyms, antithesis, morphological antonym, lexical antonym, phraseological antonym, contextual antonym.*

Kirish. Badiiy asar tilini o'rganish o'zbek tilshunosligida XX asrning 30-yillaridan jiddiy boshlangan bo'lsa-da, bugungi kunda nafaqat lingvistikamiz, balki adabiyotshunosligimizning ham eng dolzarb, munozarali muammosiga aylandi. Ma'lumki, badiiy asar tilini o'rganish orqali yozuvchining adabiy mahorati ham baholanadi. Badiiy matndagi zid ma'noli so'zlarni tahlil qilish asar mazmunini, uning g'oyasini va yozuvchining ijodiy mahoratini chuqur o'rganish imkonini beradi. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir [9;18-b.]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunos A.Rustamov bu haqda shunday yozadi: "Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Tazod san'atida badiiyshunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi [7;64-b.]. Bu san'at Yevropa filologik an'anasida "antiteza" deb yuritilishi tilshunoslikka doir adabiyotlarda alohida ta'kidlanadi. Antetiza (grek. antithesis – qarama-qarshi qo'yish) qiyoslanuvchi fikr, tushuncha obrazlarni qarama-qarshi qo'yishdan iborat stilistik figura [3;16-b]. S. Karimov bu usulni shunday ta'riflaydi: "Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli (mumtoz adabiyotda bu usul tazod deb yuritilgan) bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni beradigan so'zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo'llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir [5;219–220-b.].

O'zbek tilshunosligida antonimlarning lingvistik tabiati, til sathlaridagi o'rni, mohiyati, me'yor masalalari o'rganilgan hamda ularning hosil bo'lish yo'llari, grammatik strukturasi masalalari keng tadqiq etilib, bu ilmiy izlanishlarning amaliy yakuni sifatida o'zbek tili antonimlarining lug'ati yaratilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbek adabiyotida har bir iste'dodli yozuvchining so'zdan foydalanish mahorati o'ziga xosdir. Badiiy asar tilida yozuvchining so'zdan foydalanishidagi o'ziga xosligini aniqlash uchun, avvalo, ijodkorning tilga bo'lgan munosabatini kuzatish lozim.

Erkin Samandar o'zbek adabiyoti xazinasini o'zining badiiy durdonalari bilan boyitgan ijodkorlardan biridir. Ularda aks etuvchi har bir g'oyaviy mazmun o'zining badiiy-estetik ta'sir kuchiga ega. Bilamizki, yozuvchi ijodining salmoqli qismini nasriy uslubda yaratilgan asarlar tashkil qiladi. Adibning yetuk romannavis sifatidagi mahorati "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" asarida namoyon bo'ladi. Romanda inson ma'naviyati, muhabbat masalalari bilan bir qatorda, Orol muammosi ham qalamga olinadi. Yozuvchi ushbu asarida zid ma'noli (antonim) so'zlardan unumli foydalangan.

Asarda zid ma'noli so'zlarning qo'llanilishi ma'lum bir uslubiy vazifa bajarib, matnning hissiy-ta'sirchanligini oshirishda sezilarli ahamiyat kasb etadi. Ijodkor asarlarida zid ma'noli so'zlarning qo'llanilishini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Leksik antonimiya. Ma'lumki, zid ma'nolilik, asosan, sifat so'z turkumi doirasida uchraydi. Erkin Samandar nasriy asarlarida leksik sathdagi zid ma'nolilik ko'proq sifat, ot, ravish turkumlariga xosdir:

a) ot so'z turkumi doirasida:*–Dushmaningdan qasd olding deng. Men dushmanimdan emas, o'chimni o'z do'stimdan oldim. Dushmanlarim hali ham yallo qilib yurishibdi...* [2;23-b.]. Ganjaning Aminovga aytgan ushbu gapida *do'st-dushman* so'zlari o'zaro antonim sifatida keltirilgan. Asar qahramoni ushbu so'zlarni Aminovga iztehzo tarzida gapirib, unga bo'lgan nafratini, g'azabini kuchli va ta'sirchan darajada ifodalagan. "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da ko'satilishicha, "do'st" so'ziga "dushman" so'zi hamda uning sinonimik variantlari "g'anim, ag'yor" antonim sifatida keltirilgan;

b) sifat so'z turkumi doirasida: *–Ie, uning eski, yangi qo'shig'i ham bormi hali? Yangisi go'rda, nuqul eski, siyqasi chiqqan qo'shiq, undoq qiladurmiz, bundoq qiladurmiz* [2;23-b.]. Ushbu o'rinda *eski* va *yangi* so'zlari antonim sifatida keltirilgan bo'lib, *eski* so'ziga *siyqasi chiqqan* iborasi sinonim sifatida berilgan va leksik-frazeologik sinonimiyani hosil qilgan. Leksik sinonimdan keyin, frazeologik sinonimni keltirish orqali ma'no yanada kuchaytirilgan.

Men uni tanimas ekanmanmi? Yetti pushtini bilaman uning. Sog'idan ko'p ahmog'i [2;8-b.]. Ushbu misoldan ko'rinadiki, yozuvchi *sog'-ahmoq* leksik antonimlarini otlashish hodisasi orqali qarshilantirgan.

Ganja hozir shularni o'ylab yotarkan, o'zining soddaligidan og'rindi. Kim do'st, kim dushmanligini bilib bo'lmas ekan. Oq deganing qora bo'lib chiqadi, qora deganing oq... [2;28-b.]. Sifat so'z turkumiga mansub *oq-qora* kabi zid ma'noli so'zlar matnda takroq qo'llanilgan va *aybdor-aybsiz* ma'nosini anglatib, asarga kuchli kontrastlikni olib kirgan.

2. Ravish so'z turkumi doirasida*: Tez borgan yerga sekin borsa ham bo'ladi deganday beparvo va loqayd, borlig'ini allaqanday miskinlik chulg'agan, yuzi tund, bag'rida avvalgi jo'shqin ruh nishon ko'rinmaydi* [2;12-b.]. *Chap qanotidagi bulbul o'ng qanotidagi gulga talpingandir* [2;24-b]. Asardan ma'lumki, Qorayantoq qishlog'ida azaldan shunday udum bor. Kuyov kelinni kemada bir aylantirib, daryoni ziyo-

rat qildiradi. Qishloq otaxoni Buva Ganja va Qumrixonning to‘yi munosabati bilan ularga kema yasaydi. Kemaning o‘ng yonida qizil gul surati, chap biqinida gulga qarab talpinayotgan bulbul tasvirlanadi. Yozuvchi *o‘ng* va *chap* so‘zlarini antonim sifatida keltirib, gul va bulbul tasvirini ham bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Xuddi ularning qismatida ayriliq borligini kitobxonga anglatgandek. *Loyihaning ishkali ko‘p. Hozir oldi olinmasa, ertaga falokat ro‘y beradi, deyaver* [2;22-b.].

3. Kontekstual antonimlar. Ma’lumki, ba’zan qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar ijodkor niyatiga mos ravishda muayyan konteksda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. “Asli antonimik munosabatda bo‘lmagan bunday so‘zlarning qarama-qarshi qo‘yilishida kontekst alohida rol o‘ynaydi, shuning uchun ularni shartli ravishda kontekstual antonimlar deb yuritiladi [1;15-b.]. Kontekstual antonimlar badiiy matnda kuchli poetik aktuallashib, tasvirning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi [8;188-b.].

So‘z estetikasini o‘rgangan tilshunoslar ta’kidlaganlariday, “Bunday antonimiya faqat individual nutqqa xos bo‘lib, bu nutqdan tashqarida mavjud emas. Shunday bo‘lsa ham, so‘z san’atkorlari ana shunday antonimiyani yuzaga keltirish bilan fikrning ifodaliligini va ta’sirchanligini ta’minlaydilar.

Erkin Samandar asarlarida ana shunday kontekstual zid ma’noli so‘zlar voqea-hodisa, harakat-holat, aqliy-ruhiy jarayonlarni ifodalab kelganligiga duch kelamiz. Masalan: *Ganja indamadi. Ichida o‘yladi. Sening ko‘zlaring zulmatga o‘rgangan. Quyoshni bilmaysan* [2;6-b.]. Bilamizki, tilimizda *zulmat* va *quyosh* so‘zlari o‘zaro zid ma’noli so‘zlar emas, ya’ni lisoniy zid ma’nolilik hisoblanmaydi. Ushbu so‘zlar kontekstual antonimlikni hosil qilib, *yorug‘lik* va *qorong‘ulik* ma’nolarini ifodalab kelmoqda. Ma’lumki, *yorug‘lik* – nur bilan to‘lgan, hamma narsa aniq ko‘rinadigan, *qorong‘ilik* – nur yo‘q yoki kam bo‘lgan, aniq ko‘rinmaydigan ma’nolarida izohlanadi [6;79-b]. Bu o‘rinda asar qahramoni Ganjaning jazo muddatini o‘tab, besh yil o‘tirgach, ozodlikka chiqish holatini aniq ifodalashga xizmat qilgan.

– *Amudaryoda loyqa suv oqadi.*

– *Bo‘tana ekan-da. Tiniq suv yaxshi.*

– *Loyqaning xosiyati ko‘p. Yerni sog‘ qiladi. Cho‘milsang tanangga yara-chaqa toshmaydi* [2;15-b.]. “O‘zbek tili antonimlarning izohli lug‘ati”da *tiniq* va *loyqa* so‘zlari antonim sifatida qayd etilgan. Ammo *bo‘tana* so‘zi orqali yozuvchining invidual kontekstual antonimiyasi yuzaga kelgan. *Bo‘tana* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikki xil ma’noda berilgan. 1.Loyqa qum, tuproq kabilar aralashgan. 2. Loyqasimon, kir tusli, xira ma’nolari. Asarda *bo‘tana* so‘zining birinchi ma’nosi ifodalangan bo‘lib, roman qahramonlari Ganja va Qumrixonning muhabbatga to‘la go‘zal suhbatida keltiriladi.

Aminovning har bitta gapi go‘yo o‘tga sepilgan suv ediki, Ganja ko‘nglidagi tug‘yonini o‘chirish o‘rniga lovillatib yubordi [2;23-b.]. Tilimizda *o‘chirmoq* va *lovillatib yubormoq* fe’llari bevosita zid ma’noli emas, ammo ular orasida ruhiy holat zidligi bor. Aslida, *o‘chirmoq-yoqmoq* so‘zlari o‘zaro antonim bo‘lib, yozuvchi ushbu so‘z o‘rniga *lovillatib yubormoq* ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini tanlaydi va asar qahramoni Ganjaning Aminovga bo‘lgan nafratini ifodalashda poetik vazifa bajargan.

Qurbon aka aytganday eh, dunyo... odamni birpasda o‘tdan olib, suvga solasan, suvdan olib, o‘tga. Bir daqiqa ichida qorong‘i olam nurlandi-ya [2;40-b.]. “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”da *qorong‘i* so‘zining antonimi sifatida *yorug‘* so‘zi keltiriladi. Yozuvchi esa *qorong‘i* so‘zini *nurlanmoq* so‘ziga zid qo‘yadi. Ko‘rib turganimizdek, ushbu so‘zlar sifat va fe’l so‘z turkumi doirasida sodir bo‘lgan. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da *yorug‘, nurli, charog‘on, yorqin, munavvar, porloq, ravshan, nurafshon* kabi so‘zlar sinonimik qatorni vujudga keltirganini hisobga olib, ularni kontekstual antonim sifatida tahlil qilsak, xato bo‘lmaydi.

4. Frazeologik antonimlar. Bilamizki, qarama-qarshi ma’no ifodalovchi iboralar antonim iboralar deyiladi: *ko‘kka ko‘tarmoq – yerga urmoq; yuzi yorug‘ – yuzi shuvut; ko‘ngli joyiga tushmoq – yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq.* Bunda yozuvchining badiiy-estetik niyati aynan poetik ta’kid olgan frazeologik antonimlarga qaratilgan.

Yozuvchi asarlarida nafaqat zid ma’noli so‘zlar, balki zid ma’noli iboralardan ham mahorat bilan qo‘llanib, ular vositasida matnning emotsional-ekspressiv ta’siri kuchaytirilgan: *Finish hammasidan ham og‘ir. Osmonda yurgan ne-ne kazolar posadka payti yer-yakson bo‘lishadi* [2;21-b.]. Demak, *osmonda yurmoq* va *yer-yakson bo‘lmoq* iboralari *xursandchilik* va *g‘amginlik* mazmunida zidlantirilib, tasvir yanada kuchaytirilgan. Yana boshqa misolda: *Anor xolaning oshig‘i olchi edi. Biyday katta hovlida bitta o‘zi yashab yurgan ona bag‘riga birdaniga ikki farzand kirdi. Huvillab yotgan uy chamandek yashnab ketdi* [2;20-b.]. “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romanidan olingan mazkur gap Ganjaning onasi Anor xolaning xursandchiligini o‘xshatish vositasi orqali zidlantirgan va kitobxon ko‘z o‘ngida aniq gavdalantira olgan. Asardan ma’lumki, Ganja bir yasharligida onasi vafot etadi. Ammasi Anorxon otasini rozi qilib, Ganjani uyiga olib keladi. O‘ziga o‘g‘il qilib oladi. O‘qitib, voyaga yetkazadi. Otasi Qilich aka esa keyingi xotinidan besh

farzand ko‘radi. Anorxon Ganjaga butun hayotini bag‘ishlaydi. O‘g‘li va kelini unga onalik baxtini ato etadi. Ularning tashrifi esa hovlisini gulzorga aylantiradi. *Huvillab yotmoq* va *chamandek yashnamoq* iboralari orqali xursandchilik kayfiyatini ifodalashda lingvopoetik vosita bo‘lgan hamda Anorxonning holatini tasvirlashga xizmat qilgan. Badiiy asarlarda antonim so‘zlar “hodisa va holatning ichki ziddiyatini ochishda, xarakterlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlashda yozuvchiga qo‘l keladi.

Xulosa. Erkin Samandar o‘z nasriy asarlarida zid ma’noli so‘zlardan mohirlik bilan foydalana olgan. Ular vositasida matnning ta’sirchanligi oshirilgan hamda yozuvchining badiiy niyati aniq va yorqin tasvirlangan. Antonimlar yordamida voqea-hodisalarni zid tarzda qo‘llash, obrazlar mohiyatini ochish adib uslubining o‘ziga xos jihati sifatida namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз естетикаси. Тошкент, “Фан”, 1981, 15-бет.

(2). Еркин Самандар. Ғайб қушлари. Тошкент, “Шарқ”, 2009, 242-бет.

(3). Ҳожиев А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент, 1985, 164-бет.

(4). Ҳомидий Ҳ. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. Тошкент,” Ўқитувчи”, 1970, 30–31-бетлар.

(5). Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Филол.фан. д-ри...дисс., Самарқанд, 1993, 219–220-бетлар.

(6). Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980.

(7). Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. Тошкент, “Адабиёт ва санъат”, 1979.

(8). Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 254-бет.

(9). Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Тошкент, “Маънавият”, 2002, 80-бет.

Sobirov Qahramon Saloyevich (Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi ”Tillarni o‘qitish metodikasi’ kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEK DRAMATIK ASARLARIDA SINEKDOXA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek dramaturgiyasida sinekdoxaning badiiy va sahnaviy ifoda vositasi sifatida tutgan o‘rni chuqur tadqiq etiladi. O‘zbek dramatik asarlari tahlil qilinib, ulardagi sinekdoxa namunalarining dramatik ma’no va sahnaviy kuchini oshirishdagi roli ochib berilgan. Tadqiqotda matn va sahna tahlil metodlari qo‘llangan.*

Kalit so‘zlar: *sinekdoxa, o‘zbek dramaturgiyasi, dramatik ifoda, badiiy vosita, sahnaviy tahlil.*

Собиров Кахрамон Салоевич (Центр педагогического мастерства Хорезмской области, кафедра Методики преподавания языков, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент)

СИНЕКДОХА В УЗБЕКСКИХ ДРАМАТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В этой статье подробно исследуется роль синекдохи как средства художественного и сценического выражения в узбекской драматургии. Анализируются узбекские драматические произведения, раскрывается роль образцов синекдохи в усилении драматического смысла и сценической силы. В исследовании использовались методы анализа текста и сцены.*

Ключевые слова: *синекдоха, узбекская драматургия, драматическое выражение, художественная среда, сценический анализ.*

Sobirov Qahramon Saloyevich (doctor of philosophy in philological Sciences (PhD), associate professor, Department of language teaching methodology, Khorezm regional center of pedagogical skills)

SYNECDOCHE IN UZBEK DRAMATIC WORKS

Annotation. *This article explores in depth the role of synecdoche as a means of artistic and stage expression in Uzbek drama. Uzbek dramatic works were analyzed, revealing the role of synecdoche samples in them in increasing dramatic meaning and scenic power. The study used text and scene analysis techniques.*

Key words: *synecdoche, Uzbek drama, dramatic expression, artistic medium, stage analysis.*

Kirish (Introduction). Sinekdoxa so‘zning ko‘p ma’noliligini yuzaga chiqaruvchi ko‘chimlardan biridir. Sinekdoxaning mohiyati shundan iboratki, ayni bir so‘z butun ma’nosini ham, qism ma’nosini ham ifodalaydi. Masalan, *qo‘l, oyoq, bashara, kalla, qorin* va boshqalar kishi tanasining bir qismi sifatida ham qo‘llanadi, lekin shunday holatlar ham bo‘ladiki, ular butun bir kishi ma’nosida ham ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ko‘plik son o‘rnida birlik ishlatilishi sinekdoxaning qiziqarli ko‘rinishlaridan ekanligi R.Qo‘ng‘urov tomonidan misollar orqali dalillangan [1;25-b.]. Rus tilida otlarda rod tushunchasining almashib kelishi ham shu xil hodisalardan ekanligi ilmiy ada-